

AYOL-QIZLARNI HUQUQLARINI HIMOYA QILISH-DAVLAT MIQYOSIDAGI USTUVOR VAZIFADIR

Fahrutdinova Nodirabegim Jasur qizi
O'zDJTU Sharq filologiyasi 2-kurs talabasi
tel: +998 934271927

ummumanzura@gmail.com

Ilmiy raxbar: Umurzakova O.

Men barcha davlat organlari, fuqarolik jamiyatlari, faollar va media – barcha-barchani bu jarayonga qo'shib, zo'ravonlikka qarshi kurashning yagona mexanizmiga aylanishga chaqiraman. Zo'ravonlik – jinoyat. Zo'ravonlik – bizning madaniyatimiz emas!"

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yordamchisi Saida Mirziyoyeva

Annotatsiya. Ushbu maqolada zo'ravonlikka qarshi kurashish, ayol-qizlarning haq-huqularini himoya qilish bo'yicha chora tadbirlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, so'nggi yillardagi islohotlar, gender tengligini ta'minlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Zo'ravonlik-bir insonning boshqa bir insonga, u hoh jismonan hoh ruhan bolsin, insoniylik chegarasini buzish, huquqlarini poymol qilish va shaxsiy daxlsizlik va yaxlitlika putur yetkazishdir. Bu illat jamiyatda doimiy ravishda qoralangan, unga qarshi kurash olib borilgan. Ayni damda, bu illat yurtimiz yoshlarini tarbiyalovchilari-ayol-qizlarga nisbatan qo'llanilayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Zo'ravonlik o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi: jismoniy, ruhiy, iqtisodiy, jinsiy.

Zo'ravonlik rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar:

Bugungi kunda zo'ravonlik harakatlari uchun hech qanday asosiy shartlar mavjud emas, biroq insonga ta'sir qiluvchi va unga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muayyan psixologik va ijtimoiy omillar mavjud.

Bunga quyidagilar kiradi:

- insonning muhiti (aloqa doirasi shaxsiyatning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi);
- alkogolizm va giyohvandlik;
- ruhiy kasalliklarga bo'lgan genetik nosozlik;
- Huquq va majburiyatlarini bilmaslik yoki unga beparvo bo'lish
- Tarixdan bilamizki, ayollarning jamiyatdagi holatiga munosabat turli davrlarda turki siyosatiga qarab o'zgarib keldi. Zero, xotin-qizlar har qanday jamiyatda ham oilaning asosini tashkil etgan. Xorijiy tajribalar ham shuni ko'rsatadiki, oiladagi zo

‘ravonlik-bu davlat organlari va ko‘ngilli xizmatlarning ko‘plan turli bo‘linmalari faoliyatiga daxldor bo‘lgan keng miqyosdagi muammodir. Agar oila tinch bo‘lsa, undagi har bir shaxs erkin va barqaror hayot tarzini olib borishi, bu davlatga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatibgina qolmay, yetuk avlodni yetishtirishda ham muhim rol tutadi. Ayol-qizlar huquqlari va erkinliklari poymol bo‘lsa, bu asta sekinlik bilan uning qadrsizlanishiga, o‘z o‘rnini yo‘qotishga va har tomonlama zaiflikka olib boradi. Shu bilan birga bunday holatlarda yosh avlod ham har tomonlama nuqson bilan voyaga yetadi, ma‘naviy ozuqasi, ham aqlan, ham jismonan rivoji sust bo‘ladi. Zo‘ravonlik illati kichik muammolardan davlat miqyosigacha ko‘tarilish xususiyatiga ega bo‘lib, har bir inson ongi, tafakkuri va mafkurasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatib, katta yutuqlardan to‘sadi. Zo‘ravonlikka uchragan ayol hech qachon malakali kadr yetishtira olmaydi chunki uning ichki va tashqi ruhiyati, ahvoli tang holatda bo‘ladi va shu zayilda bunday jamiyat rivojlanishda sustlashadi va jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Muqaddas dinimiz bo‘lgan Islom ham insondagi 5 narsani himoya qiladi: dini, ruhiyati, nasabi, aqli va moli. Bu narsalarga hech kimning tajovuz qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi, inson qadri ulug‘lanadi.

Shu bilan birga, 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Shavkat Mirziyoyevning “Xotin-qizlarning tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi qonunining qabul qilinishi ham bu illatga qarshi kurashning yaqol misoli bo‘la oladi. Qonunga ko‘ra tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi sodir etilgan zo‘ravonlik yoki tahdid haqida tegishli organlarga yoxud sudga murojaat etish, bepul huquqiy maslahat, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish kabi huquqlarga ega. Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tomonidan joriy yilning aprel oyida oilada zo‘ravonlikning oldini olish va oilaviy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlarga amaliy ko‘mak ko‘rsatish yuzasidan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Raqamlarga e‘tibor qaratsak, 2020-yilda 14 ming 774 nafar ayolga himoya orderi berilgan, 2021-yilning 39 ming 343 nafar ayolga bunday order berilgan bo‘lsa, 2022-yilning 9 oyida esa 37 ming 959 nafar ayol himoya orderidan foydalandi va o‘z huquqlarini himoya qildi. Bundan tashqari, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”dagi 69-maqсад: “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtrokini ta‘minlash” belgilab qo‘yildi va maqsadga doir amaliy rejalar ishlab chiqildi. O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, milliy parlamentimiz ayol deputatlar va senatorlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o‘rtasida 37-pog‘onaga ko‘tarildi. Shuningdek, boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi – 27 foizga, siyosiy partiyalarda – 44 foizga, oliy ta‘lim tizimida – 40 foizga, tadbirkorlik sohasida esa 35 foizga yetdi.

Bularning barchasi so‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish borasidagi tizimli ishlarning samaralaridir. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Bundan tashqari, ayollar salomatligi, onalik va

bolalikni muhofaza qilish, xalqimiz genofondini mustahkamlash inson qadrini ulug‘lashning o‘zak masalasidir. Shu maqsadda 2023 yili 6 million 500 ming nafardan ziyod ayollar tibbiy tekshiruvdan o‘tkazilib, ularga zarur maslahat va amaliy yordam ko‘rsatildi.

Yoshlarimizni milliy ruh va mafkura asosida tarbiyalash-dolzarb masaladir. Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Sharq Uyg‘onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida ham, yoshlarning o‘ri beqiyos bo‘lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quevatlab turishni talab etadi... Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvatlashga qaratilgan chora- tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Ularga oila muqaddasligini, ayolning qadri-qimmatini, hurmati va ezgulik timsoli ekanini singdirishimiz, ularga qulay shart-sharoitlar yaratgan holda kelajakni barpo etishimiz kerakligini anglatmog‘imiz lozim. Yuksak ma‘naviyatli yetuk ayollardan-mard va jasur o‘g‘il-qizlar yetishadi va mana shunday ruhda ulg‘aygan yoshlardan hech qanday zo‘ravonlik, jinoyat va boshqa salbiy jihatlar kuzatilmaydi. Vatanga, oilaga muhabbat bilan tarbiyalash-yorqin kelajagimizga olib boruvchi asosiy me‘zondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi, Adliya vazirligi, huquqiy axboroti;
2. “OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI, xalqaro anjuman materiallari to‘plami, “Mahalla va oila nashriyoti”, Toshkent 2022;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvar PF-60 sonli farmoni;
4. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi web-sayti